

## Pragmatikaning Til Va Madaniyatga Bog‘Liqligi

*Kenjayeva Fotimaxon<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pragmatika qanday paydo bo‘lgani va uning til va madaniyatlar aro bog‘liqligi, nutqdagi ahamiyati, hamda unga qara aytilgan fikr mulohazalar asoslar orqali yoritib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** pragmatika, nutq akti, so‘zlashuv uslubi, madaniyat, til.

**Kirish.** Tilshunoslik va tillarni o‘qitish sohasida odatda til va madaniyat ko‘pincha bir biri bilan bog‘liq deb bilish darajasida chambarchas bog‘liqdir va bular esa tilshunoslik fanida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Har qanday millatning ko‘zgusi bu uning tili hisoblanishi bilan bir qatorda uning turli millat va elatlar bila o‘zaro bog‘liqligi, madaniyatlar o‘rtasidagi tafovut ham alohida o‘rin tutadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu borada ham aytish o‘tish joizki, til nafaqat aloqa vositasi balki insonning o‘ziga xos madaniy jihatlarini ham yaqqol ko‘rsatib beruvchi birlik hisoblanadi. Endi tilshunoslikdagi pragmatikaning mohiyatiga keladigan bo‘lsak, bu ham ko‘plab tilshunos va olimlarni jalb qilgan qism hisoblanib, bir necha fikrlarni inobatga olgan holda uni qanday tilshunoslik maydoniga kirib kelishi va qay tarzda shakllanishi ham muhimdir. Va bu jihatdan olib qaralganda, pragmatika shakllanib, ko‘plab fikrlarni inobatga olgan holda uning til va madaniyatga o‘zaro bog‘liqligi ham o‘rganib tadbiq etila boshladи desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu nazariya va fikrlar o‘z isbotini topishi uchun albatta, nutq aktiga va tillar orasidagi muloqotdagi farqi va tushunilish darajasi va mohiyatini ham yoritib berishimiz lozimdir. Shuning uchun biz til o‘rganish mobaynida mentalitet, milliy xususiyat, uni ajratib turadigan boshqa farqlarga duch kelishimiz aniq. Ushbu holatda esa til o‘rganish jarayonida o‘sha xalqning urf-odatlari, milliy xususiyatlaridan ham, madaniyat darajalari va fikrni qay tarzda yetkizib berilayotgandan ham xabardor bo‘lishi kerak. Tillar yokida aynan bir til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshiroq anglash zarurati ko‘plab zamonaviy jamiyatlarda lingvistik, ijtimoiy va madaniy xilma-xillikning kuchayishi bilan bog‘liq bo‘lib, uni o‘rganish tilshunoslarga alohida masuliyat bo‘lgan. Va bu borada ko‘plab olimlar o‘z qiziqishlarini fikrlar orqali ifodalab berishgan. Shu sababdan ham pragmatika rivojlanib, alohida yo‘nalish sifatida qabul qilina boshlagan. Bularga to‘xtalishdan avval pragmatika nima va u qanday shakllandidi, kimlarni fikrlari inobatga olindi v anima uchun madaniyatga, tilga bog‘landi degan ko‘plab so‘roq ostidagi gaplarga javob beramiz.

### Pragmatika

Pragmatika – yunonchada “ish”, “harakat” degan ma‘nolarni anglatib, nutqdagi til birliklarining funksionalligini o‘rganuvchi semiotika va tilshunoslikning sohasidir va bu borada taniqli olim va tilshunoslар o‘z ishlарini tadbiq qilganlar. Bundan avval pragmatika qanday kelib chiqqaniga yuzlansak, va u XX asrning o‘rtalariga borib taqaladi. Asosan bu termini izohlashda amerikalik olim Ch. Morrisning fikrlari muhim hisoblanadi va u pragmatikani rivojlanishida muhim ro‘l o‘ynaydi. Va shu sohani o‘z navbatida rivojlantirgan va “pragmatika” terminini semiotika bo‘limlaridan birining nomi sifatida amaliyotga kiritgan.<sup>158</sup> Ikkinchisi bu pragmalingvistikaning lingvistik asoslari bor yoki yo‘qligi. Pragmalingvistika haqidagi nazariya o‘zbek tilshunosligida ikki asosga ko‘ra farqlanadi: semiotik nuqtai nazardan hamda lingvistik nuqtai nazardan. Semiotika bu barcha fanlarning otasi hisoblanadi ya’ni semiotika- bu belgililar haqidagi fan hisoblanadi. Semiotiklar (belgishunoslар)

<sup>1</sup> O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti Xorijiy til va adabiyoti, 2-ingliz fakulteti, 4-bosqich talabasi



tilshunoslik faniga, tilga semiotikaning bir qismi sifatida yondoshadilar va tilni belgi sifatida e'tirof etadilar. Natijada lingvistika degan fanning yonida lingvosemiotika degan fan yuzaga kela boshlagan<sup>2</sup>.

"Pragmatikaning manbasi Ch.Pirs, U.Djems, D.Dyun, Ch.Morris kabi taniqli faylasuflar nomi bilan bog'liqdir. Chunki ularning ishlarida XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida belgilar sistemasi va lingvistik belgi funksionalligi xususidagi g'oyalar o'rtaga tashlanib, semiotika haqidagi asosiy tushunchalar aniqlanadi, sintaktika, semantika va pragmatika o'rtasidagi o'zaro farqlar ko'rsatiladi<sup>3</sup>". Lingivistik tomongan olib qaraladigan bo'lsa shunga o'xhash fikr va mulohazalarga duch kelishimiz mumkin.Va o'z navbatida bu ham muhim kontekstlardan iborat desak bo'ladi. Lingvistik pragmatika haqidagi ilk fikrlar, qarashlar, uning shakllanishi haqidagi muhim ma'lumotlar N.D.Arutyunova va Ye.V.Paduchevalarning ishlarida beriladi. Ular ko'pgina manbalarda semantika haqida bilimlarning, tadqiqotning mavjudligi, hamda pragmatika haqida umuman tasavvurning yo'qligi haqida ta'kidlaydilar. Keyinchalik semantik bilimlarni chuqur egallashga bo'lgan qiziqish, pragmatik bilimlarni egallashga unday boshlaydi. Shu asnoda, pragmatika va semantika o'rtasidagi farqga bиринчи navbatda e'tibor qaratildi.<sup>4</sup>Bu ikkisi ham tilda nutq belgilarini o'рганувчи sohalar hisoblanib, nutqda esa yashirin ma'nolarni ham anglash ko'lamidan olib qarasak pragmatika muloqot paytida ham muhim ahamiyat kasb etadi.Shunday ekan, pragmatika so'zlovchining aslida nima deyotgani va qanday natija kutyotganini anglashga yordam beradi desak mubolag'a bo'lmaydi.Pragmatikani ahamiyati va muloqot davomida madaniyatlar bilan bog'mliqligi ham alohida o'rin tutadi.Bu yo'nalish uchun nafaqat o'zbek balki chet el olimlari ham o'z nazariyalar orqali ham ifodlab berishgan. XIX asrning boshlarida, keyinchalik XIX asrning 60–70-yillarda til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, xususan, lingvokulturologiyaning nazariy muammolari V.fon. Gumboldt, F.I. Buslayev, A.N. Afanasyev, A.A. Potebnya<sup>5</sup> tomonidan o'рганилган, shuningdek, nemis olimlari aka-uka Grimmilar ham soha rivojiga munosib hissalarini qo'shishdi.Bundan tashqari esa o'zbek tilshunoslari ham fikr va mulohazalarini o'zaro keltirib o'tishgan va rivojlanib shakllanishiga yordam berishgan. J.A. Yakubov, G.X.Bakiyeva, D.U. Ashurova, A.M. Bushuy, Sh.S. Safarov, A.E. Mamatov, N.M. Mahmudov, O'.Q. Yusupov, D.S. Xudoberganova, D.R. Djumanova, M.D. Djusupov, I.M. Tuxtasinovlarning monografiya va maqolalari lingvokulturologik birliklarning lisoniy xususiyatlarni o'рганишга bag'ishlangan<sup>6</sup>Ushbu olimlarning fikrlari ham o'z navbatida inobatga olinib, tilshunoslilik faniga juda kata hissa qo'shgan desak mubolag'a bo'lmaydi.Chunki bu fikrlarga tayangan holda pragmatikani yangi cho'qqilarda ko'rishimiz mumkin bo'ladi.Shu jihatdan ham biz bularni o'рганишимиз va yangi g'oyalar ustida ishlar oborish lozim.Pragmatika ham o'z holida muloqotdagি fikrni anglash bo'lsa so'zlovchi esa o'z fikrlarini bayon qilishda turli yo'llardan foydalanadi.Masalan so'zlovchi suhabatdoshning diqqat-e'tiborini tortish, ularga kommunikativ ta'sir qilish, suhabatga qiziqtirish, fikrini jalb qilish, chalg'itish, hayajonga solish, to'lqinlantirish, ishontirish, aldash, qo'rqtish kabi maqsadlarini amalga oshirishda so'zning, so'z birikmasining ekspressiv-emotsional-

<sup>2</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Pragmatika>

<sup>3</sup> Петров В.В. Философия, семантика, pragmatika // Новое в зарубежной лингвистики. Вып. XVI. – М., 1985. - С. 471

<sup>4</sup> Hakimov M. "O'zbek pragmalingvistikasi asoslari". Toshkent "Akademnashr", 2013. Bet 9

<sup>5</sup> Гумбольдт В.Ф. Язык и философия культуры. – М.: Прогресс, 1985. – 452 с.; Буслаев Ф.И. Русский быт и духовная культура. Сост. и отв. ред. О.А. Платонов. – М.: Институт русской цивилизации, 2015.

<sup>6</sup> Yakubov J. Fransuz tilida «muhabbat» konseptining kognitiv xususiyatlari/Olmonshunoslilik va tarjimashunoslilikning dolzarb muammolari. – Т., 2011. – В.107-111; Bakieva Г. Лингвистические основы анализа художественного текста: Автореф. дис... док-ра филол. наук. – Т., 1993. – 46 с.; Ashurova D., Galieva M. Cultural Linguistics. – 2019.; Ashurova D. Text Linguistics. -Tashkent: Tafakkur Qanoti. 2012. – 204 р.; Бушуй А. Взаимоотношения между языком, культурой и обществом// Til va milliy madaniyat. Samarqand davlat chet tillar institutining 10 yilligi yubileyiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro konferensiya materiallari. – Samarqand, 2008. – В. 6-13.; Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslilik. – Jizzax: Sangzor, 2006. 92 б.; Mamatov A. Lingvomadaniyatshunoslilik: lingvokulturema va logoepistema. – Xorijiy filologiya. Til. Adabiyot. Ta'lim. – Samarqand, 2015. – №1(54). – В. 9-15; Mahmudov N. Olamning lisoniy manzarasi va so'z o'zlashtirish // O'zbek tili va adabiyoti. – Т., 2015. – №3. – В.3-12.; Yusupov O'. Ma'no, tushuncha, konsept va lingvokulturema atamalari xususida / Stilistika tilshunoslilikning zamonaviy yo'nalishlarida. – Т., 2011. – В. 49-55; Xudoberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. –Т.: Turon-zamin-ziyo, 2015. – 42 б.; Тухтасинов И.М. Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков): дис. канд. филол. наук. – Т., 2011. – 157



baholovchi ma'nosini, ya'ni kommunikativ-pragmatik ma'nosini qo'llash ehtiyoji vujudga keldi. Shunday ekan, og'zaki muloqot pragmatikani ahamiyati va uni tinglovchiga yetkazib berish usuli ham demakdir.

### Pragmatikaning til bilan bog'liqligi

Ma'lumki, har qanday nutqiy ifoda milliy an'analar, til, tarix, adabiyotni o'z ichiga olgan holda shakllangan bo'ladi va o'ziga xos pragmatikaga ega. Xalqaro iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalar tilni pragmatikaning aks ettirish vositasi sifatida talqin qilinishiga olib keldi. E. Sepir ta'kidlaganidek: "Til pragmatikani o'rganishda yo'l ko'rsatuvchi vositadir. Tilni o'rganishda nafaqat so'zlar, til birlklari va nutqini, balki o'rganilayotgan til mamlakatining pragmatikasi, dunyoqarashi, turmush tarzi va urfodatlarini ham bilish muhimdir". Va shularni o'rganish davomida boshqa millat tillarini madaniyatini ham o'rganib olishimiz mumkin va bu bilan bирgalikda muloqot davomida g'alizlikni oldini olgan bo'lamiz. Shu jihatdan ham ko'plab fikrlar mujassamlashgan. Bir tomondan o'ylab qaralsa pragmatika va tilning bog'liqligi ya'ni determinism kata ahamiyatga ega masaladir va bu keng tushuncha bo'lganligi sababli ham tilshunoslarni e'tiborini tortgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuning uchun turli mamlakatlar olimlari til va pragmatika masalasini turli yo'naliishlarda o'rganishlari tabiiy. Bu muammoni taniqli tilshunos olimlar (Yu.Sorokin, V.Teliya, A.Veybitskaya, V.Kostomarov, D.Olford, D.Cheyms va boshqalar) va faylasuflar (G.Brutyan, E.Markaryan va boshqalar), psixologlar (L.Vygotskiy, A.Leontyev, V.Petrenko<sup>8</sup> o'z tadqiqotlari atrofida o'rganib chiqishgan va fikrlarini tasdig'I sifatida bir necha asoslar tadbiq etishgan. Shuning uchun ham bu ishlarni pragmatika sohasida e'tirof bilan keltirib o'tsak mubolag'a bo'lmaydi. Keyingi yillarda tilshunoslikning alohida tadqiqot sohasi sifatida rivojlanishi (A.Krasnix, V.Maslova, D.Gudkov, D.Ashurova) bu masalaning dolzarbligini ko'rsatib berdi.<sup>9</sup> Demak, bundan ko'rinish turibiki nafaqat pragmatikani o'rganish boshlarida balki zamonaviy davrda ham muhimlik ahamiyatini yo'qotmagan. Ko'plab tilshunoslar ham e'tirof etishini hisobga olgan holda shuni takidlab o'tish joizki pragmatikani til bilan bog'liqlik darajasi borasida eng ko'p manba va takliflar kiritgan shaxs V.A. Maslova hisoblanadi. U yaratgan qo'llanmalar ham dunyo yuzini ko'rib pragmatika sohasida ulkan bir siljish qilib beradi. Boshqa millat tilshunoslari o'z hissalarini qo'shib kelayotgan bir paytda o'zbek tilshunoslari ham chetda qolishmadidi. Va o'z qarash va qollanma, nazariyalari bilan pragmatikani shakllanishi borasida o'z hissalarini qo'sha boshlashdi. Masalan, Z.I.Saliyevaning nomzodlik ishi o'zbek va fransuz tillaridagi sentensiya, ya'ni axloqiy-ta'limiy xarakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlariga bag'ishlangan. Bu bilan esa til bilan bog'liqlik yuzasidan ham o'z fikrlarini bayon eta olgan. Yana boshqa o'zbek tilshunoslariga qaraydigan bo'lsak N.Maxmudov e'tirofga arziydi desak mubolag'a bo'lmaydi. "Til va pragmatika deganda, ko'pincha, "nutq pragmatikasi" muammoi assotsiativ holda nazarda tutilsa-da, bu ikki o'rindagi pragmatikaning aynan bir xil tushunchani ifodalashini bildirmaydi. Ayni shu tushunchalar va fikrlar egasi ham aynan mana shu tilshunos olim hisoblanadi. Shuni takidlasj joizki, bu fikrlarga tayangan holda ham koplab boshqa tilshunoslar ham o'z fikrlarini ifodalanib berishga harakat qilishgan. Til va pragmatika deganda, odatda til orqali u yoki bu pragmatikani yoki aksincha, pragmatikani o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi pragmatikaning ma'nosini "aqliy-ma'naviy" yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuyi demakdir. Ma'lumki, lingvokulturologiya fanining obyektini milliy tilda yorqin ifodasini o'zida namoyon etuvchi noekvivalent leksika va lakunalar, tilning stilistik jamlanmasi, til birlklarning miflashgan ko'rinishlari:

<sup>7</sup> Sapir E. Selected works on linguistics and cultural studies. - M., 1993. -- p. 259-265

<sup>8</sup> Сорокин Ю. С. Общие принципы словаря. Хронологические границы описания. Источники словаря. Состав словарника. (Гл. 1). Характеристика речевой употребительности слова и ее изменений. (Гл. VII) // Словарь русского языка XVIII в. Проект. — Л.: Наука, 1977. — С. 5—27, 107-122 Телия А. «Русская фразеология: Семантический, pragmaticheskiy i lingvokulturologicheskiy aspekty» (1996)

<sup>9</sup> Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М.: Академия, 1987. – 284 с.; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс/ В.И. Карасик. – Волгоград, 2002. – 477с. Гудков Д.Б. Теория и практика межкультурной коммуникации/ Д.Б. Гудков. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2003. – 288с.п.л Ашуррова Д.У. Новые подходы к лингвистике текста. Хорижий филология. – №3. – Самарканда, 2011. – 32 б



arxitip va miflar (asotir va rivoyatlar), tilda o‘z aksini topgan rasm-rusum va odatlar, tilning paremiologik fondi, til etalonlari, imo-ishora va ramzlar, tildagi o‘xshatish va metaforalar hamda o‘zbek nutq odatlari va nutqiy etiket shakllari tashkil etadi”<sup>10</sup>.Bundan tashqari ham ko‘plab fikrlarni dalil sifatida keltirib berishimiz mumkin. Dunyoning madaniy qiyofasida pragmatikaga xos ma’nolar, madaniy qimmatli dominantlar, pragmatikaning ma’lum turlarini tashkil etuvchi, tilda saqlanib qolgan va qo‘llaniladigan tushunchalar bo‘ladi dunyoning madaniy qiyofasi yagona til pragmatikasi qolipidagi yagona obrazni ifodalamaydi, chunki turli millat vakillari turli qadriyatlarga ega bo‘lishi mumkin; dunyoning madaniy qiyofasi nafaqat individual, balki jamoaviy ongda ham mavjuddir<sup>11</sup>.Pragmatika til belgilarining nutqdagi harakatini o‘rganuvchi va ularni tilshunoslikning tadqiqot doirasida qabul qilinishi. Lingvistik pragmatika aniq shaklga ega emas. Uning tarkibiga so‘zlovchi va tinglovchiga, ularning nutq jarayonidagi o‘zaro munosabatiga bog‘liq masalalar majmuyi kiradi. Gapiruvchi shaxsning tinglovchiga qanday munosabat va ohangda bo‘layotgani ham muhim sanaladi.Shunday ekan pragmatikaning tilga bog‘liqlik jihatni ko‘p va fikrni bayon etishda muhimdir. J.Ostin so‘zning yaratilishi, so‘zlovchining shaxsiy fazilatlari tufayli yuzaga kelishini, ya’ni uni ishlab chiqaruvchi bo‘lmish nutq sub’ektiga bevosita bog‘liq ekanligi g ‘oyasini ilgari suradi va o‘z fikrlari bilan tadbiq eta boshlaydi. Uni ta’kidlashicha esa nutq jo‘natuvchisi va qabul qiluvchisi shaxslari ham bunda asosiy rol o‘ynashini va maqsad faktik ma'lumotlarni uzatish emas, balki uni qanday va qay tarzda bundan tashqari qay usullardan foydalanib talqin qilishga qaratilishini ta’kidlaydi. J. Ostin jumla faqat narsalarning holatini “ta’riflashi” yoki “biror fakt haqida nimanidir bayon qilishi” emas, balki insonlar ishlatadigan iboralar butunlay boshqacha maqsadda qo‘llanishini izohlaydi. U: “Biz buyruq berishimiz, kechirim so‘rashimiz, va’dalar berishimiz, taxminlar qilishimiz, kimnidir ogohlantirishimiz, ayplashimiz, salomlashishimiz – bir so‘z bilan aytganda, til yordamida turli harakatlarni bajarishimiz mumkin-deydi ”<sup>12</sup>.Ana shu jihatlarni ham inobatga olgan holda biz shu to‘xtamga kelishimiz mumkinki,til va pragmatikani o‘rni beqiyos va u muhim terminlarga asoslangan holda tadbiq etishimiz mumkin.Bu borada yuqorida aytib o‘tilgan olim va tilshunos o‘z ilmlarini qarashlari orqali ifodalab berib,bu yo‘nalishga malum bir darajda siljish qilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.Albatta pragmatikani tilshunoslikda o‘rni katta bo‘lib,og‘zaki nutqda va biror tilni o‘rganyotganimizda muhim ahamiyat kasb etadi.Chunki biz bir tilni mukammal o‘rganmoqchi bo‘lsak uning muloqotda g‘alizlikka duch kelmasligimiz va malum darajada madaniyatini ham o‘rganishimiz lozim.Chunki bir tilni o‘zini o‘rganish bilab cheklanib qolmasligimiz va unu mukammal darajada o‘rganib bermalol o‘zga millat a’zolari bilan suhbat qura oladigan darajada bilishimiz uchun ham pragmatika nima ekanini va uni tilga yoki madaniyatga qay darajada aloqasi bor ekanini tushunib yetishimiz kerak.Demak,endi biz pragmalingivistikani madaniyatlarga bog‘liqlik darajasini ko‘rib chiqsak bo‘ladi.

### **Pragmalingivistikani madaniyatga bog‘liqligi**

Malumki,hozirgi kunda zamon tez fursatlarda rivojlanyotgani sababli turli davlatlarga malum sabablarga borib kelish osonlashdi.Turizm,bizness,tijorat va shu bila bирgalikda ta’lim yo‘nalishda qator yangiliklar qilindi.Tabiiyki,boshqa millat tilarini o‘rganish zarurati oshadi.Va til bilan bирgalikda madaniyati,an‘analarini ham o‘rganish lozim bo‘ladi chunki bir millatning boshqa millatdan asosiy farqi til va albatta menteliteti hisoblanadi.Muloqot davomida anglashmovchiliklarni oldini olish maqsadida albatta biz pragmatika va uni madaniyatga,muloqotga aloqadorligini anglay bilshimiz zarur.Aksariyat tilshunos olimlarning ko‘p yillik ilmiy izlanishlari shuni ko‘rsatmoqdaki,biror bir xalqning,millatning tilini mukammal o‘rganish uchun uning madaniyatini ham chuqur tadbiq etish zarurdir. Masalan,har bir tilda shunday bir lisoniy birliklar,ular orqali anglashiladigan tushunchalar mavjudki,ularning boshqa tildagi ekvivalentini topib,tarjima qilish ba’zida mumkin bo‘lsa-da,aynan o‘sha ma’noni,tushunchani ifodalab,izohlash juda ham mushkul.<sup>13</sup> Yuqoridagi gaplardan ma’lumki, har bir tilda tarjimasi mavjud bo‘lmagan so‘zlar emas,aynan tushunchalar va shu bilan bирgalikda

<sup>10</sup> Mamadjanova N.M. Lingvokulturologikbirliklarningutqdagio‘rni. «Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya» nomli 10-sonilmay, masofaviy, onlaynkonferensiya. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6323272>

<sup>11</sup> Karasik V.I. Language matrix of culture. - Volgograd, 2012.

<sup>12</sup> Дж Остин. Слово как действие// НЗЛ. Вып .XVII.-М.,1986. 83-91-betlar

<sup>13</sup> 2 th International Multidisciplinary Scientific Conference on Ingenious Global Thoughts Hosted from Berlin, Germany <https://conferencepublication.com April 30th 2021.175-bet>



birikmalar mavjudki,biror bir chet tilini o'rganayotgan shaxs faqatgina o'sha tilda so'zlashadigan millatning madaniyatini,turmushini,hayot tarzini,ma'naviy olamini,dunyoqarashi-yu urf-adatlarini mukammal o'rgangan taqdirdagina bu kabi milliy-madaniy tushunchalarining mohiyatini to'laligicha anglab yetishga erishishi mumkin.Aks holda esa tushunish borasa bir qatorda qiyinchiliklarga duch kelishi yokida notog'ri tushuncha orqali ma'no mazmunini o'zgartirib yuborishi mumkin. Biz buni bir necha misollar orqali ham tushinishmiz mumkin.Ya'ni bazi millat tillarida bir so'zni to'gridan to'g'ri tarjima qilinsa ham asl ma'nosi o'z ma'nosidan yiroq bo'lishi mumkin.Shu jihatlarini ham hisobga olgan holda aynan biz pragmatikani til yoki madaniyatga bog'liqligini o'rganishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.Tilda aks etishi muammolari bilan shug'ullanadigan – psixolingvistika, atrof-olam tushunchalarining inson ongiga qay tarzda qabul qilinishi yoki anglanishi va uning tildagi aksini o'rganadigan kognitiv linvistika – pragmalingvistika,nihoyat, til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi asosida tashkil topgan,madaniyatning tildagi aksini o'rganadigan – lingvokulturologiya kabi yangi fanlar vujudga keldi.Aynan shu sohalar til va madaniyatning uyg'unlini o'rganish bo'yicha ajralib chiqqan bir sohalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda ushbu fanlar o'zining rivojlanish bosqichida bo'lib, aynan lingvokulturologik tadqiqotlarga nemis tilshunos olimi va faylasufi V.fon Gumboldt va uning amerikalik izdoshlari E.Sepir va B.Uorfnkabi tilshunos olimlarning til va tafakkur to'g'risidagi qarashlari,fikrlari asos bo'lib xizmat qilmoqda. V.Gumboldning fikrlari XIX-XX asrlarda "neogumboldtianstva" nomi bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina olimlar ilmiy izlanishlari natijasida taraqqiy etdi.<sup>14</sup>Bundan tashqari ham ko'plab tilshunoslar madaniyatshunoslik yoki uni til bilan qanday aloqasi bor ekani haqida ko'plab asosli fikrlarni aytib o'tishgan.Lingvomadaniyatshunoslik yangicha tafakkur tomonidan ilgari surilgan madaniy qadriyatlarining yangi tizimiga, jamiyatning zamonaviy hayotiga, fakt va hodisalarni to'liq, xolisona talqin qilishga asosiy e'tiborni qaratadi; xalq madaniyatini obyektiv, to'liq va yaxlit talqin qilish lingvomadaniyatshunoslikdan xalq madaniyatining uning tilida, ularning dialektik o'zaro ta'siri va rivojlanishida tizimli tasvirini talab qiladi. Ko'rib turganimizdek, V.V.Vorobyovning ta'kidlashicha, tilshunoslik va madaniyatshunoslik chorrahasida vujudga kelgan lingvomadaniyatshunoslik ma'lum bir milliy-madaniy hamjamiyat til shaxsining ma'naviy qadriyatları va tajribasini ma'lum bir shaklda shakllangan majmuini o'rganadigan yangi filologik fan bo'lib, bиринчи navbatda, jonli kommunikativ jarayonlarni va ularda o'rganilayotgan lingvistik iboralarning xalqning sinxron harakat qiluvchi mentaliteti bilan bog'lanishini o'rganadi<sup>15</sup>va ta'limning tarbiyaviy va intellektual vazifalarini bajarilishini ta'minlashini ta'kidlab o'tgan.Bundan tashqari zamonaviy tilshunoslikda lingvomadaniyatshunoslikning nazariy va uslubiy tushunchalari V.V.Vorobyovning "Lingvokulturologiya" monografiyasida eng keng yoritilgan bo'lib, mualif lingvomadaniyatshunoslikni bir necha jihatlarda tavsiflaydi .

- 1) bu sintezlovchi tipdag'i ilmiy fan, madaniyat va filologiyani (tilshunoslikni) o'rganuvchi fanlar o'rtasidagi chegara;
- 2) lingvomadaniyatshunoslikning asosiy obyekti – madaniyat va tilning faoliyat ko'rsatish jarayonidagi munosabati va o'zaro ta'siri va bu o'zaro ta'sirning yagona tizimli yaxlitlikda talqinini o'rganish;
- 3) lingvomadaniyatshunoslikning predmeti – jamiyat borligining til aloqasi tizimida takror ishlab chiqariladigan va uning madaniy qadriyatlariga asoslangan milliy shakllari, "dunyoning lisoniy manzarasi"ni tashkil etuvchi barcha narsalar;
- 4) lingvomadaniyatshunoslik yangicha tafakkur tomonidan ilgari surilgan

<sup>14</sup><https://conferencepublication.com April 30th 2021>

<sup>15</sup>Vorobyev V.V. "Лингвокультурология в кругу других гуманитарных наук. "Русский язык за рубежом 3" (1999): – С. 77



madaniy qadriyatlarning yangi tizimiga, jamiyatning zamonaviy hayotiga, fakt va hodisalarni to‘liq, xolisona talqin qilishga asosiy e’tiborni qaratadi<sup>16</sup>

Ushbu jihatlardan ham bilib olishimiz mumkinki, pragmatika ham madaniyat va til bilan o‘zaro tushunilib va bir qatorda o‘rganiladi. Agar biz asl ma’nolarni bilmasak ko‘plab muammolarga duch kelishimiz mumkin. Bu borada batafsil to‘xtalib o‘tishimiz lozim. Masalan, biz ingliz tilida “hello” so‘zini faqat salomlashish ma’nosini bilsakda lekin ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlarga borsak bu jihatdan qiyinchilikka uchrashimiz mumkin. Chunki hello so‘zini salomlashishdan ham boshqa ko‘plab fikrlarni yoki vaziyatni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu holatda esa native speaker yani osha millat vakili so‘z o‘rtasida bu so‘zni ishlatsa bu degani yana boshidan salomlashyapti deb tushunmasligimiz kerak. Ushbu holatlarda noqulay vaziyatga tushib qolmasligimiz uchun ham pragmatika va lingvomadaniyatshunoslik o‘z o‘rnida o‘rganib va tadbiq etilgan fikrlarga qulq solmoq darkor. Til tafakkurning tabiatini, dunyonи bilish usulini belgilab ko‘rsatadi, insonning ongi va xatti-harakatiga ta’sir qiladi. Tilga madaniyat hodisisi sifatida munosabat, uni ushbu pozitsiyalardan tavsiflash milliy mentalitet belgilariga e’tibor qaratish va ularning lug‘at, frazeologiya, nutq odobi, axloqiy tushunchalar, ma’lum bir narsa tashuvchisining nutqiy faoliyati tabiatida aks etishini taqozo etadi. Ushbu holatlarni inobatga holda biz madaniyat, urf-odatlar barchasini bir tilni o‘rganish orqali tushunib olishga harakat qilamiz. Endi na’muna sifatida yuqorida ta’kidlab o‘tgan misolimizni kengroq qilib yoyib, tushuntirib bersak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ana shunda pragmatika va uning madaniyatga qay darajada bog‘liq ekaniyu va nima uchun muhimlik darajasi yuqori ekanini anglab yetamiz. Demak, jadval orqali “hello” so‘zining ma’nolari va qay holatlarda ishlatalishi haqida so‘z oboramiz va bularni bilish orqali ham biz pragmatik tomonidan ham tushunishimiz oson bo‘ladi desak adashmaymiz.

Hello	Situations	Examples
	Greeting	Hello Mr James. Nice to meet you
	Phone conversation (if you don’t hear the voice)	Helloo. Sorry I cannot hear you. Hello could you repeat?
	Misunderstanding the conversation	You just tried to start your car with your cell phone. Hello?
	Astonishing	Hello! When you come here?

Bundan ko‘rinib turibdiki, biz “hello”ni faqatgina bir ma’nosini bilsak va qolgan holatlardan xabardor bo‘lmasak suhbatdagi tushunmovchilikka sababchi bo‘lamiz va bu jihatlarni ham inobatga olgan holda ham pragmatikani nafaqat til yoki nutqqa balki madaniyat yoki ana shu tili o‘rganiyatgan millatni urf –odatlarini, an’analarni hisobga olishimiz darkor. Shuning uchun ham tilshunoslar bu kabi yo‘nalishlarni tadbiq qilish bo‘yicha ko‘plab asoslar berishdi. Ana endi tilni tushunishdan ham ko‘ra madaniyatga qay tarzda bog‘liq ekanligi haqidagi olimlarning fikriga to‘xtalamiz. “Madaniyat” lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalaridan biridir. Shuning uchun madaniyatning ontologiyasini, uning semiotik va boshqa xususiyatlarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotchi Ven Shu Lee “madaniyat” tushunchasining 6 ta tarifini keltiradi:

1. Madaniyat (tabiat va biologiyadan farqli olaroq) - insonning noyob say-harakati, urinishidir. U "tabiatni yo‘q qilishga qarshi misoli bir qo‘rgondir"
2. Madaniyat - nazokat, xulq-atvordir.
3. Madaniyat - (barbarlardan farqli o‘larоq) tamaddundir.
4. Madaniyat - lisoniy haamjamiyat, ishonch, qadriyatdir (har bir madaniyat vakili bir tilda gaplashadi, ayni an’analarrd bo‘lishadi).
5. Madaniyat - hukmron yoki yo‘lboshlovchi‘madaniyatdir. Masalan, "madaniyat axloq va buzuqlikni belgiloVchi sinfni boshqaradr".

<sup>16</sup> [https://www.researchgate.net/publication/367220713\\_Til\\_va\\_madaniyatning\\_lingvomadaniy\\_aloqalari](https://www.researchgate.net/publication/367220713_Til_va_madaniyatning_lingvomadaniy_aloqalari)



6. Madaniyat umumiyligi va botishilmaydigan narsalar orasidagi tangliklarni o'zgartiradi.<sup>17</sup> "Til va madaniyat" masalasi ko'p qirrali bo'lib, unga madaniyat tarixchisi, tilshunos, faylasuf, psixolog etnograf va adabiyotshunos turlicha yondashadi. Biroq masalaning tilshunoslikka oid tomoni ikki jihatlidir, chunki til va madaniyat o'zaro munosabatda bo'ladi. Shunga ko'ra, ikkita savol tug'iladi: 1) turli madaniy jarayonlar tilga qanday ta'sir ko'rsatadi? 2) madaniyatga til qanday tasir qiladi? Mashhur rus tilshunosi G.O. Vinokurning "tilni o'rganayotgan har qanday tilshunos, albatta, tanlagan til uning mahsuloti bo'lgan o'sha madaniyatning tadqiqotchisiga aylanadi"<sup>18</sup> degan tezisi tilshunoslikning shakllanishidan boshlab tasdiqlanib kelmoqda. Ushbu fikrlarga tayangan xolda biz shuni anglab olishimiz mumkinki, til va madaniyatni pragmatika orqali tushunish bu katta mohiyat kasb etadi va buni yuqoridagi fikrlarga tayangan holda anglab yetish maqsadga muvofiq bo'ladi desak adashmagan bo'lamiz. v. Fon Gumboldt "Tillarning xilma-xilligi faqat tovushlarning turlichaligi emas, balki har bir millatdagi dunyoni ko'rishning farqliligi natijasidir", deb qayd qilgan. Chindan ham, har bir millatning o'ziga xos ko'rish tarzi bor, o'ziga xos idrok intizomi bor, umumlashtirib aytganda, o'ziga xos tafakkur tamoyili bor... Amerikalik tilshunos Benjamin Li Uorf "Agar Nyuton inglizcha gapirmaganida, inglizcha o'ylamaganida edi, uning koinot haqidagi buyuk kashfiyoti bir qadar boshqachroq bo'lardi degan"<sup>19</sup>. Lingvistik bilimlarning milliy-madaniy tushunchalar bilan uyg'unlikdagi o'rganilishi har tomonlama bilimlarni oshirish, va bundan tashqari o'ziga o'zgalar nazari bilan qarab baxo berish va o'zinikiga o'xshamagan boshqa bir madaniyatlar, qadriyatlar va qarashlar borligi haqida tassavurga ega bo'lish ko'nikmalarini shakllantradi. Shuning uchun ham tili o'rganilayotgan millatning turli odatlarini o'rganish va ularni o'z millatimizni odatlariga solishtirgan holda o'rganishimiz uchun ushbu yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Nafaqat boshqa millatlarni an'analarini o'rganishimiz balki o'zimizni madaniyatimizni ham anglashda yordam beradi. Bu esa tilshunoslikda yangi kirib kelyotgan sohalardan biri bo'lib endi tayanch fikrlar orqali rivojlanish arafasida. Bu soha til harakteri va millat xarakterining o'zaro aloqadorligini tadqiq qilishda milliy til va milliy madaniyat mushtarakligidan kelib chiqqan holda tildagi lisoniy birliklarning lingvokulturologik xususiyatini tekshirishni asosiy vazifalardan biri sifatida qo'yadi. Rus tilshunos olimi V. Vorobyov ham V. Gumboldt g'yalriga asoslanib, Lingvokulturologiya fanining nazariy metodologik asosini ishlab chiqdi. Bu fanni "Madaniyat va tilning amaldagi qo'llanish jarayonida o'zaro aloqasi va o'zaro ta'sirini o'rganadigan fan" sifatida baholadi. Hamda bu aloqalar "til birliklari va madaniy birgalikning umumiyligi bog'liqligi yig'indisi tarkibida aks erishini tizimli metodlar yordamida anglaydigan fan"<sup>20</sup> ekanligini ta'kidlab o'tgan. Yuqorida juda ko'plab fikrlarni keltirib o'tildi va bulardan kelib chiqib aytildigan bo'lsa ham, madaniyat va til, qolaversa, bularni pragmatika olamida muhim ahamiyat kasb etilishi ham bejiz emas. Chunki ko'plab tilshunoslarning o'zaro fikrlarini keltirib o'tildi. Ayrim madaniyatlarda, xususan, rus, fransuz va yapon madaniyatatlarda kontekstning o'rni juda katta bo'lib, ma'lum hollarda aytiganlarning ma'nosini teskarisiga o'zgarishi mumkin. Nutq jarayonida noverbal vositalarning pragmatik xususiyatlari Shuning uchun bunda noverbal aloqa omillari alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Biznes suhbatlarda, misol uchun, ruslar amerikaliklarga nisbatan bir-biriga yaqinroq keladi. Boshqacha aytganda, ruslar uchun ijtimoiy masofa amerikaliklarga nisbatan kamroq, va ularning shaxsiy yoki yaqin masofasi bir-biriga to'g'ri kelmaydi.<sup>21</sup> Shu holatlarni ham hisobga olgan holda millatlararo madaniyat va o'zini turli vaziyatlarda tutish muhim sanaladi. Chunki yuqoridagi holat uchun ham vaziyat taranglashi mumkin chunki bir birlarini odatlariga zid bo'lgan harakatlar orqali orada kelishmovchilik yuzaga kelishi mumkin. Va xuddi shunday vaziyatlarni oldini olish ham ushbu kirib kelgan soha uchun ayni muddaodir.

<sup>17</sup> I Judith Martin, Thomas Nakavama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. -New York: McGraw-Hill, 2010. - P. 85.

<sup>c</sup> Hasanova, G.X. 2021. "Nutq jarayonida noverbal vositalarning pragmatik xususiyatlari". Ozbekiston: til va madaniyat 1: 21–40

<sup>19</sup> Maximov H.-Til. Toshkent. Yozuvchi, 1998-B.9:10

<sup>20</sup> 2 th International Multidisciplinary Scientific Conference on Ingenious Global Thoughts Hosted from Berlin, Germany <https://conferencepublication.com> April 30th 2021

<sup>21</sup> Hasanova, G.X. 2021. "Nutq jarayonida noverbal vositalarning pragmatik xususiyatlari". Ozbekiston: til va madaniyat 1: 21–40



## Xulosa.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlab o'tish joizki, pragmatika va uning bir necha sohalardagi bog'liqligi va ularni fikr, mulohazalar orqali yoritib berilgani muhim ahamiyat kasb etadi. Biz birinchi o'rinda pragmatika haqida malumotlar oлganimizda uning turli sohalarga bog'liqligi haqida tushunchalar yo'q edi. Lekin ko'plab tilshunoslarning fikri va mulohazalari ortidan bu soha rivojlanib, shakllana boshladи. Bundan tashqari esa malum yo'naliшhlar alohida fan sifatida ajralib chiqsa boshladи. Pragmatika ham madaniyatshunoslik bilan bog'liq holda o'rganilyotgan bir qatorda, ko'plab fikrlar va zamon talab qilyotgan sabablarga ko'ra yaqin davrlardan beri alohida fan sifatida yuritilyapti. Ammo buning asl negizi pragmatika va uning tilga va ana shu tili o'rganilayotgan millatning madaniyatiga ham bog'liqligidandir. Demak, bu sohalar muhim ahamiyat kasb etadi chunki malum bir suhbatlar va muloqotlar davomida g'alizlikka duch kelish, yoki tushunmovchilikni oldini olish maqsadida ham o'z mohiyatini saqlab kelyapti desak mubolag'a bo'lmaydi.

## REFERENCES

1. 2nd International Multidisciplinary Scientific Conference on Ingenious Global Thoughts Hosted from Berlin, Germany <https://conferencepublication.com> April 30th 2021
2. Hasanova, G.X. 2021. "Nutq jarayonida noverbal vositalarning pragmatik xususiyatlari". Ozbekiston: til va madaniyat 1: 21-40
3. I Judith Martin, Thomas Nakavama. Intercultural communication in contexts. - 5th ed. – New York: McGraw-Hill, 2010. – P. 85.
4. Kamariddinovna, M. E. (2024). DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FOREIGN LANGUAGE EDUCATION. *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2(4), 66-70.
5. Karasik V.I. Language matrix of culture. - Volgograd, 2012.
6. Mamadjanova N.M. Lingvokulturologik biriklarning nutqdagi o'mi. «Zamonaviyadunedapedagogikavapsixologiya» nomli 10-sonilmiy, masofaviy, onlaynkonferensiya. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6323272>
7. Maxmudov H. Til. Toshkent. Yozuvchi, 1998-B.9:10
8. Sapir E. Selected works on linguistics and cultural studies. – M., 1993. – p. 259-265
9. Shakhnoza, I., Zamira, S., & Asqar, O. (2024). IMPROVING LISTENING SKILLS OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS THROUGH MUSIC AND SONGS. *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2(4), 61-65.
10. Sitora, O. (2024). IMPROVE ENGLISH VOCABULARY WITH THE HELP OF DOING CROSSWORD PUZZLES FOR A1 LEVEL STUDENTS (ELEMENTARY). *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2(4), 45-51.
11. Vorobyev V.V. "Лингвокультурология в кругу других гуманитарных наук. "Русский язык за рубежом 3" (1999): – С. 77 <https://conferencepublication.com> April 30th 2021
12. Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. – М.: Академия, 1987. – 284 с.
13. Ашуррова Д.У. Новые подходы к лингвистике текста. Хорижий филология. – №3. – Самарканда, 2011. – 32 б
14. Дж Остин. Слово как действие// НЗЛ. Вып .XVII.-М.,1986. 83-91-betlar
15. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс/ В.И. Карасик. – Волгоград, 2002. – 477с. Гудков Д.Б. Теория и практика межкультурной коммуникации/ Д.Б. Гудков. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2003. – 288с.



16. Петров В.В. Философия, семантика, прагматика // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI. – М., 1985. – С. 471
17. Сорокин Ю. С. Общие принципы словаря. Хронологические границы описания. Источники словаря. Состав словарника. (Гл. 1). Характеристика речевой употребительности слова и ее изменений. (Гл. VII) // Словарь русского языка XVIII в. Проект. – Л.: Наука, 1977. – С. 5 – 27, 107-122 Телиа А. «Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты» (1996)
18. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Pragmatika>
19. [https://www.researchgate.net/publication/367220713\\_Til\\_va\\_madaniyatning\\_lingvomadaniy\\_aloq\\_alar](https://www.researchgate.net/publication/367220713_Til_va_madaniyatning_lingvomadaniy_aloq_alar)

